## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### "Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim oʻzgarishi" yoʻnalishi

| Loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
|---|---|
| **Orol dengizining qurigan tubida tabiiy agroruda asosidagi kapsulalarda granulashtirilgan choʻl oʻsimlikliklaridan ihota oʻrmon barpo etish texnologiyasini joriy etish**  | **Tadqiqot shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy tadqiqot natijalari:**<br>- loyiha davomida urugʻlarning ingibitorlik xususiyatlaridan xoli ekish boʻyicha ilmiy izlanishdlar olib boriladi va maqbul ingibitorsiz nihol olish usuli ishlab chiqiladi.<br>- urugʻga ishlov berish, skorifikatsiya jarayonlari, granulalab (kapsulalab) 95-100 foiz urugʻ unuvchanlikka ega boʻlgan urugʻlarni ekishning oʻrmon melioratsiyasidagi ahamiyati baholanadi va maqbul nihol olish texnologiyasi yaratiladi;<br>- yakka tanlash usulida yaratilgan qora saksovul buta oʻsimligidan 10 gektar maydonda urugʻlik plantatsiyasi tashkil etiladi;<br>- olingan natijalar asosida urugʻ eksport qilish imkoniyati yaratiladi.<br>**Natijalarni sinovdan oʻtkazish.** Olingan natijalar Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasiga qarashli tashkilotlarda sinovdan oʻtkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi toʻgʻrisida **Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi**ning xulosasi olinadi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, oʻquv qoʻllanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi**ning qoʻllab-quvvatlash xati mavjud boʻlganida qabul qilinadi. |